Kreditning to‘liq qiymati (KTQ): ____% (_____ foiz)

KREDIT KARTA ORQALI MILLIY VALYUTADA KREDIT AJRATISH TO‘G‘RISIDA KREDIT SHARTNOMASI

__._____.*20*__ № ____ _____ *tuman/shahri*

Bir tomondan “Agrobank” ATBning _____ filiali (bundan buyon, matnda “BANK” deb yuritiladi) nomidan 20 ___ yil “__” _____ dagi № _____ -sonli Ishonchnomaga asosan harakat qiluvchi filial boshqaruvchisi _____va ikkinchi tomondan _____ da istiqomat qiluvchi fuqaro _____ keyingi o‘rinlarda “QARZ OLUVCHI” deb yuritiladi hamda uchinchi tomondan.

I. SHARTNOMA PREDMETI VA SHARTLARI:

1.1. Bank qarz oluvchiga _____ (_____) so‘m miqdorda, “_____” yil muddatga, muddatini uzaytirish huquqisiz kredit ajratadi, “Qarz oluvchi” esa olingan kredit va unga hisoblangan foiz to‘lovlarini shartnomada belgilangan muddat hamda shartlarda “Bank”ka qaytarish majburiyatini oladi.

1.1.1. Kreditning to‘liq qiymati (KTQ) qonunchilikda belgilangan tartibda kredit bo‘yicha to‘lovlar va KTQ hisob-kitobiga kiritilishi lozim bo‘lgan boshqa xarajatlarni inobatga olgan holda hisoblanadi va shartnomaning birinchi sahifasida ko‘rsatiladi. Kredit kartaning mustaqil to‘lov xizmatlari uchun tariflar bilan kredit ajratish xarajatlari bir-biridan ajratib ko‘rsatiladi.

1.2.Kreditdan foydalanganlik uchun foiz miqdori: yillik _____ foiz. Foiz stavkasi turi — _____ (o‘zgaruvchi/o‘zgarmas).

1.3.Kredit muddati __._____._____ yildan __._____._____ yilgacha.

1.4.Kreditni o‘zlashtirish muddati shartnoma imzolangan kundan boshlab 30 kalendar kun.

1.5.Bank kredit mablag‘larini kreditlashning *qaytarishlik, to‘lovlilik, ta’minlanganlik, muddatlilik* tamoyillariga rioya qilgan holda ajratadi. Kredit ajratilgan sanadan boshlab dastlabki 24 (yigirma to‘rt) oy davomida mijoz tomonidan grafikka asosan qaytarilgan mablag‘ ajratilgan limitga qayta qo‘shiladi hamda keyingi 24 (yigirma to‘rt) oy davomida proporsional tartibda limit kamaytirib boriladi.

1.6.Kredit bo‘yicha barcha to‘lovlarni kreditni so‘ndirish grafigiga muvofiq davriyligi har oyning 5 sanasidan kechikmasdan amalga oshiriladi. Kreditning asosiy qarzi va foizlarini to‘lash usuli — _____ (differensial/annuitet); bunda kredit kartaning dastlabki 24 oylik qayta tiklanuvchi (revolver) davri va keyingi 24 oylik limit kamayish davri shartlari hisobga olinadi.

1.6.1.Yangi kreditni qaytarish jadvali Bank va Qarz oluvchi tomonidan tasdiqlanib, Qarz oluvchiga taqdim etilgach, avvalgi jadval o‘z kuchini yo‘qotadi va yangi jadval amal qiladi.

1.7.Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlar tegishlicha bajarilishini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq, Bankka kredit qarzlarini so‘ndirish bo‘yicha Qarz oluvchining Bankdagi har qanday hisobvaraqlaridan har qanday valyutadagi pul mablag‘larini chiqarib olish borasida hech qanday shart qo‘yilmaydigan va qaytarib olinmaydigan huquq/farmoyishni taqdim etadi.

II. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI:

2.1. Qarz oluvchining huquqlari:

2.1.1.Bankdan ushbu shartnoma shartlari asosida belgilangan limit miqdorida va muddatda kredit kartani olish;

2.1.2.Mazkur shartnomada ko‘rsatilgan shartlar, miqdor va muddatlarda kredit olish;

2.1.3.Ushbu kreditdan foydalanish bo‘yicha “Bank”dan axborot olish;

2.1.4.Qarz oluvchi kredit bo‘yicha qarzdorlikni istalgan vaqtda jarima (penya) undirilmasdan qisman yoki to‘liq muddatidan oldin so‘ndirish huquqiga ega;

2.1.5.Qarz oluvchi kredit mablag‘lari haqiqatda berilguniga qadar Bankni xabardor qilish orqali kredit olishdan hech qanday to‘lovlarsiz voz kechish huquqiga ega;

2.1.6.Bankdan shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarilishini talab qilish.

2.1.7.Qarzdor moliyaviy qiyinchilik, murakkab hayotiy vaziyat yoki fors-major holatlari tufayli kredit to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirishga qiynalganda, kredit shartnomasi shartlarini o‘zgartirish (restrukturizatsiya) to‘g‘risida Bankka ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega bo‘lib, mazkur ariza Bankning ichki tartibiga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

2.1.8.Qarz oluvchi Bankka ariza, shikoyat yoki taklif bilan og‘zaki, yozma yoki elektron tarzda murojaat qilish huquqiga ega bo‘lib, Bank murojaat kelib tushgan kundan e’tiboran, qo‘shimcha o‘rganish talab etilmasa 15 kun ichida, qo‘shimcha o‘rganish/tekshirish talab etilsa 1 oygacha muddatda uni ko‘rib chiqadi va bunda qo‘shimcha muddat talab etilishi to‘g‘risida Qarz oluvchiga xabarnoma yuboradi.

2.2. Qarz oluvchining majburiyatlari:

2.2.1.Kreditni va unga hisoblangan foizlarni mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda to‘liq to‘lash;

2.2.2.Qarz oluvchi kredit kartasini chiqarish va undan kredit ajratish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan mustaqil to‘lov xizmatlaridan foydalanish uchun, qonunchilikda taqiqlanmagan hollarda, Bankning amaldagi tariflariga muvofiq haq to‘laydi. Kredit buyurtmasini ko‘rib chiqish, ssuda hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish va kredit ajratish uchun xizmat haqi undirilmaydi;

2.2.3.Ish joyi o‘zgargan taqdirda, bankni 10 (o‘n) bank ish kuni davomida xabardor qilish;

2.2.4.Kredit majburiyatlarining bajarilishini quyidagilar bilan ta’minlaydi: _____.

2.2.5.Olingan kreditni muddatli majburiyat asosida _____ gacha, so‘ndirish grafigiga asosan qaytarish;

2.2.6.Kredit va unga hisoblangan foizlarni har oyning 5-sanasiga qadar so‘ndirib borish;

2.2.7.Qarz oluvchi kredit to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lamagan yoki to‘liq to‘lamagan taqdirda, “Bank” tomonidan ushbu to‘lovlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri oylik ish haqi, bank kartasidagi, omonat yoki depozitdagi har qanday mablag‘lari hisobidan hamda boshqa banklardagi hisob raqamlaridan uning ruxsatisiz (akseptsiz) undirib olinishiga qarshilik ko‘rsatmaslik;

2.2.8.Garovga olingan mulkning ahvoli (yaroqliligi, likvidliligi, o‘g‘irlanmaganligi va h.k.lar) yuzasidan har 6 (olti) oyda bankka monitoring qilish uchun sharoit yaratib berish;

2.2.9.Kredit shartnoma imzolangandan so‘ng, 30 kun ichida mijoz tomonidan kredit mablag‘i o‘zlashtirilishi zarur.

2.2.10.Qarz oluvchi mazkur kredit shartnomasi amal qilib turgan davr mobaynida:

-bankning ruxsatisiz garov mulkini ikkilamchi garovga qo‘yishga;

-garov ta’minotiga qasddan zarar yetkazishga yoki o‘zgacha tarzda begonalashtirishga haqli emas.

2.2.11.Qarz oluvchi kredit va unga hisoblangan foizlarni to‘liq so‘ndirgunga qadar kredit ta’minotiga olingan garovning but saqlanishiga shaxsan javobgardir.

2.3. Bankning huquqlari:

2.3.1.Kredit berish va shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan har qanday hujjatlarni Qarz oluvchidan talab qilish;

2.3.2.Bank qarz oluvchining muddati o‘tgan kredit qarzdorligi o‘z vaqtida to‘lanmagan taqdirda kredit kartaga limit ajratishni vaqtincha to‘xtatadi;

2.3.3.Har 6 (olti) oyda kamida bir marta qarz oluvchining ishtirokida garov mulkini tekshirish;

2.3.4.Bank:

-qarz oluvchi tomonidan kredit va unga hisoblangan foizlar belgilangan grafikka asosan qaytarilmaganda, kredit va unga hisoblangan foizlar, jarima va penyalarni, qarz oluvchining oylik ish haqisidan, bank kartasidagi, omonatdagi yoki depozitdagi har qanday mablag‘lar hisobidan, boshqa banklardagi hisob raqamlaridan hamda garovga qo‘yilgan mulk hisobidan ularning ruxsatisiz (akseptsiz) undirib olishga;

-qarz oluvchi tomonidan kredit va unga hisoblangan foizlar belgilangan grafikka asosan qaytarilmaganda, kredit shartnomasini muddatidan oldin bekor qilishini, kredit va unga hisoblangan foizlarni undirib berishni so‘rab sudga murojaat qilishga haqli.

2.3.5.Qarz oluvchi ushbu shartnoma tuzilgan kundan e’tiboran 30 kun ichida kreditdan foydalanmagan taqdirda, Bank shartnomani mijozni ogohlantirmagan holda bir taraflama bekor qilishga va kredit berishni rad etishga haqli.

2.4.Bankning majburiyatlari:

2.4.1.Kreditni hisobga olish uchun Qarz oluvchiga alohida ssuda hisobvarag‘ini ochadi;

2.4.2.Shartnoma yuridik kuchga kirgandan keyin qarz oluvchiga _____ so‘m kredit(limit) ajratish, kredit karta bilan ta’minlash;

2.4.2.1.Kredit ajratish shartlari bajarilgandan so‘ng, Bank kredit limitini __ (____) ish kuni ichida kredit kartada foydalanish uchun ochadi.

2.4.3.Qarz oluvchining yozma murojaatiga asosan kredit va uning foizlariga oid ma’lumotlar bilan tanishtirish;

2.4.4.Ushbu shartnomada ko‘rsatilgan muddatlarda kreditni naqd pulda va unga tenglashtirilgan to‘lovlar shaklida qaytarilishi ustidan monitoring yuritadi.

2.4.5.Bankning dasturiy ta’minotida yuzaga kelgan nosozliklar natijasida Qarz oluvchining majburiyatlari oshirilishiga yoki uning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bank bunday nosozliklar oqibatida yuzaga kelgan xatolarni bartaraf etadi hamda yetkazilgan zararni qonunchilikka muvofiq qoplaydi.

III. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI:

3.1.Taraflar ushbu shartnomani bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 2022 yil 21 apreldagi “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni va amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;

3.2.To‘lov hujjatlariga asosan kredit (limit) kredit kartaga o‘z muddatida o‘tkazib berilmaganda, bank qarz oluvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismiga 0,2 foiz miqdorda penya to‘laydi. Biroq, bunda penyaning umumiy summasi o‘tkazib berilmagan summaning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim;

3.3.Kredit asosiy qarzi bo‘yicha muddati o‘tgan qismi o‘z vaqtida qaytarilmaganda, mijoz kredit qarzdorligining har bir kechiktirilgan kun uchun milliy valyutada ajratilgan kreditlar uchun amaldagi foiz stavkasining 2 barobari hamda xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar uchun 1,5 barobari miqdorida oshirilgan stavkada foiz to‘laydi;

3.4.Kredit uchun hisoblangan foizlar bo‘yicha muddati o‘tgan qismi o‘z vaqtida qaytarilmaganda, mijoz kredit qarzdorligining har bir kechiktirilgan kun uchun milliy valyutada ajratilgan kreditlar uchun 0,2 foiz miqdorida hamda xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar uchun 0,1 foiz miqdorida penya hisoblanadi ammo muddati o‘tgan foiz qarzdorligi summasining 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to‘laydi;

IV. KREDITLARNI SO`NDIRISH TARTIBI

4.1.Taraflarning javobgarligi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 248-moddasiga asosan amalga oshiradi. Bunda amalga oshirilgan to‘lov summasi qarz oluvchiga ajratilgan kredit bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lmasa, qarz oluvchining qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

1) asosiy qarz bo‘yicha mudddati o‘tgan qarzdorlik va muddati o‘tgan foiz to‘lovlari mutanosib ravishda;

2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo‘yicha qarzdorlk;

3) neustroyka (jarima,peniya);

4) kreditning qarzdorligini uzih bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar

V. MAXSUS SHARTLAR:

5.1.Qarz oluvchi mazkur kreditga oid ma’lumotlarni kredit tarixini o‘rganish bo‘yicha mutasaddi tashkilotlarga taqdim qilinishiga, qarz oluvchining, kafilning moliyaviy holatini o‘rganish maqsadida, kreditlashga doir ma’lumotlarni tashqi va ichki axborot manbalaridan (daromadlari, kredit tarixi va boshqa ma’lumotlari to‘g‘risida ma’lumotlar) olinishiga rozilik beradi;

5.2.Mazkur shartnomani ijro etish bo‘yicha, har qanday sud instansiyasida bank taqdim etgan hujjat, ushbu qarzdorlik summasi bankka tegishliligi va to‘lanishi lozimligini tasdiqlovchi birlamchi dalil (prima facie) hisoblanadi;

5.3.Qarz oluvchining mablag‘lari bo‘lmasa yoki yetarli miqdorda bo‘lmasa, kredit bo‘yicha to‘lovlar va unga hisoblangan foizlarni o‘z vaqtida qaytarmagan taqdirda garovga rasmiylashtirilgan mulkni bankka topshirilishiga qarshilik qilmaydi;

5.4.Qarz oluvchi vafot etgan taqdirda kredit va unga hisoblangan foizlar kredit ta’minotidan, keyinchalik qarzdorning merosxo‘rlari tomonidan qaytariladi;

5.5.Qarz oluvchi mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda to‘lovlarni amalga oshirishdan bosh tortganda, bank kreditni muddatdan oldin so‘ndirishga qaratishga haqli.

VI. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI:

6.1.Mazkur shartnomani ijro qilish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar taraflar tomonidan muzokara qilish yo‘li bilan hal qilinadi;

6.2.Muzokara natijasida nizo hal qilinmagan yoki kelishuvga erishilmagan taqdirda nizoli masala bank joylashgan hududdagi tegishli sudlar orqali hal qilinadi;

6.3.Qarz oluvchi va yetkazib beruvchi tashkilot o‘rtasidagi o‘zaro nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bank ishtirokisiz ular o‘rtasida ko‘rib chiqiladi.

VII. FORS-MAJOR HOLATLAR:

7.1.Agar shartnomaning bajarilmaganligi shartnoma tuzilgandan so‘ng, yuzaga kelgan suv toshqini, yong‘in, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, embargo (fors-major) oqibati hisoblansa va ushbu holatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta’sir etgan bo‘lsa, taraflar ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarining to‘liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etilishlari mumkin.

VIII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

8.1. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish (AML/CFT/FPWMD)

Bank O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2017-yil 23-mayda 2886-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan qoidalar hamda 2021-yil 19-oktabrda 3327-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan nizom talablariga muvofiq Mijozni lozim darajada tekshirish (identifikatsiya, verifikatsiya va monitoring) choralarini amalga oshiradi. Ushbu sohada qonun buzilishi xavfi aniqlanganda va/yoki shubha (gumon) yuzaga kelganda Bank qo‘shimcha ma’lumot (hujjat) so‘rash, kredit ajratish va/yo hisob-kitob operatsiyalarini vaqtincha cheklash yoki to‘xtatib turish, operatsiyani rad etish, pul mablag‘lari (mol-mulk)ni ishga solmay to‘xtatib qo‘yish hamda Bank ushbu Shartnomani qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilishga haqli. Qonunchilikka muvofiq Shartnomani bekor qilish vakolatli davlat organining qarori (ko‘rsatmasi) talab etiladigan hollarda, Bank Shartnomani bekor qilish uchun zarur hujjat va materiallarni vakolatli davlat organlariga belgilangan tartibda taqdim etadi hamda Shartnoma tegishli qaror (ko‘rsatma) asosida bekor qilinadi.

8.2. Qarz oluvchi va Bank ushbu Shartnoma doirasida qo‘llaniladigan sanksiya talablari, jumladan BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyusiyalari, Yevropa Ittifoqi, AQSh (OFAC), Buyuk Britaniya (OFSI) sanksiya rejimlari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya etishini tasdiqlaydi.

Qarz oluvchi o‘zi (va qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda — benefitsiar egasi/ta’sischilari) BMT, YI sanksiya ro‘yxatlari, OFAC SDN/Non-SDN, UK Sanctions List (asset freeze) ro‘yxatlariga kiritilmaganligini kafolatlaydi hamda sanksiyaviy maqomiga oid har qanday o‘zgarish yoki Shartnoma ijrosiga ta’sir qiluvchi holatlar yuzaga kelganda Bankni darhol xabardor qiladi.

Bank sanksiya cheklovlari bilan bog‘liq sabablar tufayli operatsiyalar cheklanishi/to‘xtatilishi oqibatida Qarz oluvchining ko‘rgan zararlari uchun javobgar bo‘lmaydi. Bank sanksiyaviy xavf aniqlanganda yoki Qarz oluvchi so‘ralgan ma’lumotlarni taqdim etmasa (yoki noto‘g‘ri taqdim etsa) operatsiyalarni cheklash/to‘xtatish hamda Bank ushbu Shartnomani qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilishga haqli. Qonunchilikka muvofiq Shartnomani bekor qilish vakolatli davlat organining qarori (ko‘rsatmasi) talab etiladigan hollarda, Bank Shartnomani bekor qilish uchun zarur hujjat va materiallarni vakolatli davlat organlariga belgilangan tartibda taqdim etadi hamda Shartnoma tegishli qaror (ko‘rsatma) asosida bekor qilinadi.

8.3. Tomonlar ushbu Shartnoma doirasida majburiyatlarni bajarishda pora yoki boshqa noqonuniy ustunlikni (pul mablag‘lari, qimmatbaho buyum, sovg‘a, xizmat, imtiyoz va boshqa manfaat) taklif etmaslik, bermaslik, so‘ramaslik hamda qabul qilmaslik majburiyatini oladi va pora berish/olish, **tijorat poraxo‘rligi (tijoratda pora berish/olish)**, pul mablag‘larini legallashtirish (pul yuvish) hamda terrorizmni moliyalashtirishga oid qonunchilikni buzuvchi harakatlarga yo‘l qo‘ymasligini tasdiqlaydi.

8.4. Mazkur talablar buzilgani yoki buzilish xavfi aniqlanganda, tegishli Tomon boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qiladi hamda mavjud faktlar (asoslantiruvchi ma’lumotlar)ni taqdim etadi. Ushbu band talablari buzilgan taqdirda, boshqa tomon Shartnomani sudga murojaat qilmasdan yozma bildirishnoma asosida bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

IX. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI:

9.1.Ushbu shartnoma taraflar tomonidan imzolangandan hamda kredit ta’minotiga oid majburiyatlar to‘liq bajarilgandan keyin yuridik kuchga kiradi va shartnoma taraflar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajargach o‘z kuchini yo‘qotadi;

9.2.Shartnomaga qo‘shimcha va o‘zgarishlar kiritish va uni muddatidan oldin bekor qilish taraflarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra rasmiylashtiriladi. Shartnomani bekor qilish qonunchilik hujjatida belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

9.3.Ushbu shartnoma tomonlar uchun bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi hamda ikki nusxada tuzilib, shartnomaning bir nusxasi bankka, bir nusxasi qarz oluvchiga topshiriladi.

X. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI:

BANK	**QARZ OLUVCHI**
“Agrobank” ATB _____	**F.I.O.** _____
Yuridik manzili: _____	Pasport (ID karta) raqami seriyasi:
_____	“_____” “_____”
H/r: _____	Kim tomonidan va qachon berilgan:
MFO: _____,	“_____”, __._____._____йил
INN: 207243390	
Bank boshqaruvchi: _____	Manzili: _____
_____	_____,
Bosh buxgalter: _____	
_____	PINFL: _____
Tel. raqami: +998712038888, 1216	Telefoni raqami _____
	IMZO _____